

Tong

Vatan yagonadir,
Vatan bittadir!

N: 1 (67270)
2020-yil 6-yanvar

yulduzi

www.tongyulduzi.uz

Gazeta 1929-yil 1-avgustdan chiqqan boshlagan

O'zbekiston Respublikasi bolalar va o'smirlar gazetasi

ISSN-2010-6092

Bilimdon-u zukko o'quvchilar, sizlarga o'z iqtidoringizni yana bir bor namoyish qilish imkoniyati tug'ildi. Siz chiroyli rasmlar chizasizmi? Unda, «O'zbekiston pochta» AJ, O'zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi, O'zbekiston badiiy Akademiyasi hamda «Tong yulduzi» O'zbekiston bolalar va o'smirlar gazetasi hamkorlikda

DIQQAT, YANGI TANLOV!

«DUNYO BOLALAR NIGOHIDA»

maxsus pochta markalarini chop etish uchun «Yil fasllari» bolalar ijodiy rasmlari respublika ko'rik-tanlovini e'lon qiladi.

Tanlovda 8–12 yoshgacha bo'lgan o'quvchilar o'zlarining ijodiy ishlari bilan qatnashishlari mumkin. Tanlovga A4 (295x210 mm) shaklidagi oq (vatman) qog'ozga ishlangan, 4 ta fasl aks ettirilgan (jami to'rtta rasm) jo'natilishi lozim. Shuningdek, ijodiy ishda:

- muallifning ism-sharifi;
- tug'ilgan yil, oy, kuni;
- o'qish joyi va pochta manzili, telefon raqami ko'rsatilishi kerak.

Tanlov 2020-yilning 15-yanvaridan 15-martigacha davom etadi. Tanlov g'oliblari 2020-yilning 1-iyun kuni taqdirlanadi.

Ijodiy ishlar quyidagi manzilga jo'natiladi:

Toshkent shahri, 100011, A. Navoiy ko'chasi, 28-uy. «O'zbekiston pochta» AJ «O'zbekiston markasi filiali», maktubingiz ustiga tanlovga deb yozishni unutmang.

Tel.: 71-244-39-36; 71-244-70-55



USHBU SONDA:

**YANGI
YILNING ILK
SUHBATI**

2-bet

**MUVAFFAQIYAT
SIRI**

3-bet

**BOLALAR
TARBIYACHISI**

4-bet

MASHHURLAR HAYOTIDAN

UKAMNING «JANGI»

Ukam minib «saman oti»ni,
«Qilich» ushlab chiqibdi jangga.
– Beshta dushman samolyotini,
Yiqitdim, – deb maqtandi menga.
Avvaliga kuldim rosa ham,
Hazildir deb ukam so'zlari.
So'ng hovliga chiqib qarasam,
Yotar edi besh o'lik ari..



Shoir bolalikdagi do'sti Muzaffarjon bilan. Marg'ilon. 1950-yil.

Bu she'rni o'qib, yuzingiza tabassum yugurgan, holat tasvirining tabiiyligiga tasanno aytgan bo'lsangiz, ajab emas. Uni kim yozganligiga qiziqayotgan bo'lsangiz kerak-a?! «Ukamning jangi» deb nomlangan bu she'r O'zbekiston Qahramoni, sevimli shoirimiz Erkin Vohidov qalamiga mansub, u 1952-yil «Lenin uchquni» – (hozirgi «Tong yulduzi») bolalar va o'smirlar gazetasining 3 faslida chop etilgandi. O'shanda Erkin aka 9-sinf o'quvchisi edi.

Shoir shunday xotirlaydi:
...Toshkentda kechgan bolalik va o'smirlar yillarimdan qolgan eng yorqin esdaliklar Ostrovskiy nomli pionerlar saroyidagi shoir G'ayratiy to'garagi va tog'amning xonadonida bo'lib turadigan

adabiy suhbatlar bilan bog'liq. Tog'amning kasbi huquqshunos bo'lsa ham adabiyot va san'atga qiziqqan, she'riyatni nozik tushunadigan kishi edi. Uyimizga shoir Chustiy, xonandalar aka-uka Shajalilovlar, Ma'rufxo'ja Bahodirov, keng bilim egasi bo'lgan olim, tarjimon Alixon Sog'uniy tez-tez kelib turishar edi. She'riyatga qiziqishimni sezgan tog'am bu suhbatlardan meni ham bahramand qilardi. Oddiy pochta xizmatchisi Mulla Shukurjon aka, savdo xodimi Akmalxon akalar-

ning zukko bahslariga mahliyo bo'lib o'tirar edim. Ular Hofiz, Navoiy, Bedil, Fuzuliy baytlarini tahlil qilib, har birlari o'zlaricha talqin berib o'tirishardi...



Shaxmat o'yini shoirning sevimli mashg'uloti edi.

Nodira NAZAROVA tayyorladi

EL ARDOG'IDAGI SHOIR

Maktabimizda xalqimizning sevimli farzandi, atoqli shoir Erkin Vohidov tavalludining 83 yilligiga bag'ishlangan tadbir bo'lib o'tdi.

Maktabimiz direktori A. Kenjaboyev hamda ona tili va adabiyot fani ustozlarimiz el ardog'ida bo'lgan, xassos shoir, dramaturg, tarjimon, publitsist Erkin Vohidovning adabiyotimiz va Vatanimiz oldidagi buyuk xizmatlari haqida so'zlab berdilar. 6-sinf o'quvchilari ijodkorning hayoti va ijodiy faoliyati haqida qimmatli ma'lumotlar berishgan bo'lsa, 7–9-sinf o'quvchilari esa shoirning she'rlaridan yod oldilar. Tadbirida ijodkorning she'rlariga bastalangan qo'shiqlar raqslarga ulanib ketdi.

Zulfiya EMINOVA,
Farg'ona viloyati, Quva tumanidagi
3-umumta'lim maktabining 7-«A» sinf o'quvchisi

MUHARRIR MINBARI

YANGI YILNING ILK SUHBATI

Gazetamizning yangi – 2020-yildagi ilk sonini sahifalash jarayonida tahririyatimiz telefon qo'ng'irog'i jiringladi.

– Assalomu alaykum, men, Samarqand viloyati, Kattaqo'rg'on tumanidagi 28-umumta'lim maktabi rahbari Aziza Boymurodovaman, – deya o'zini tanishtirdi suhbatdoshim. Men esa ustozni darrov esladim. Biz Xalq ta'limi vazirligi muassisligidagi nashrlarning Samarqandda bo'lib o'tgan «Matbuot kunlari»da uchrashgan edik. Tadbir doirasida o'tkazilgan uchrashuvlarida yosh o'qituvchilardan biri quyidagicha savol bilan bizga murojaat qilgandi: «Gazeta-jurnallarga obuna bo'lsak, ular bizga nima beradi, tahririyat tomonidan biror sovg'a ajratiladimi?» Men bu savolga javob berish uchun og'iz jiftlaganimda, Aziza opa o'rnilaridan turib hamkasbi savoliga: «Savolingiz biroz noo'rinqroq bo'ldi, nazarimda. Axir bolalar nashrlari biz ustozlarning eng yaqin yordamchila-

qiziqish bilan o'qib chiqar edik. Agar hozirgi kunda ham bu qadrdon nashrlarimiz xonadonimizga kelib tursa, nabiralarimiz bilan birga biz ham o'qirdik, fikr-mulohazalarimizni aytar edik. Shu tariqa o'g'il-qizlarimiz o'zaro fikr almashishni, o'z mulohazalarini bayon etishni o'rganishsa, ayni muddao emasmi», deyishdi. Bu fikrlarni eshitib, juda xursand bo'ldim. Suhbatimiz tugashi bilanoq, aloqa bo'limiga oshiqdim. Maktabimiz o'quvchilari uchun 140 dona «Tong yulduzi»ga obuna bo'ldik, – deya quvonchini biz bilan baham ko'rdi maktab direktori.

Suhbat davomida ushbu maktab chekka qishloqlardan birida joylashganini, unda 340 nafar o'quvchi tahsil olishini, ularga o'ttiz nafar oliy ma'lumotli muallimlar saboq berayotganini bilib oldik. Ayniqsa, o'tgan yil hisobiga 18 nafar o'quvchiga bu yil talabalik baxti nasib etganidan sevindik. Aziza opadek



Aziza BOYMURODOVA

rimiz-ku. Bu nashrlar o'quvchilarimizga bebaho boylik beradi, ma'naviyatini boyitadi, dunyoqarashini shakllantiradi, vatanparvarlik ruhida tarbiyalaydi. Bizning asosiy maqsadimiz ham shu emasmi, aslida?!», deya hayajonlanib javob berdilar. Ustozning bu fikrlari tadbirida ishtirok etayotgan samarqandlik aksariyat muallimlarning dilidagi, tilidagi gap ekanligini ularning olqishlaridan bilish mushkul emas edi.

Fursatdan foydalanib, maktab o'quvchilarining hayoti, maqsad va intilishlari bilan qiziqdik, ijodkor o'quvchilari bilan yaqindan tanishdik. Natija esa o'zingizga ayon. Gazetamizda shu maktabning 10-sinf o'quvchisi Mastura Sobirovaning «Ota-ona dakkisi bejizga bo'lmaydi», Aziza opaning esa «Yangicha sovg'a» nomli maqolalari chop etildi.

– Yangi yilni ezgu niyatlar bilan kutib oldik, – deya so'zlarida davom etdilar maktab direktori Aziza Boymurodova. – O'quvchilar qishki ta'tilda bo'lishlariga qaramay, biz ota-onalar bilan yig'ilish o'tkazdik. Avvalo, yangi yil bilan bir-birlarimizni qutladik, o'quvchilarimizning ta'til kunlarini maroqli, mazmunli o'tkazishlariga oid takliflar, fikr-mulohazalar bilan o'rtoqlashdik. – O'quvchilarimizning bobo-buvilari – Abduhakim bobo Tursunov, Karim bobo, Orzibonu ona Rahmonovalar «Yodimizda, bizning o'quvchilik davrimizda bolalar nashrlari har bir xonadonga kirib kelar edi. Biz bu gazeta-jurnallarni katta

talabchan, jonkuyar ustozlardan saboq olgan o'quvchilar, albatta, bu yil bo'lmasa, keyingi yilda ham oliy ta'limga hujjatlarini topshirib, bilimini sinovdan o'tkazishga harakat qilishadi-da. Xalqimizda chiroyli naql bor, hech bo'lmagandan ko'ra, kech bo'lgani ham ma'kul.

Ustoz bilan samimiy suhbatimiz tugagach, ko'nglimga bir o'y taskin berdi: Shukurki, yurtimizda Aziza opa singari fidoyi, daryodil ustozlar, maktab rahbarlari juda ko'p.

Shundaylar bor ekan, «Tong yulduzi» gazetasi o'quvchilarining soni ortaveradi. Ushbu nashr yuqorida bobo va buvilarimiz ta'kidlaganidek, har bir o'g'il-qizning qo'lga yetib borishiga umid qilsak arziydi. Aziza opaning shogirdlaridan biri 28-umumta'lim maktabining 11-sinf o'quvchisi Maftuna Mahmudova telegramm orqali yo'llagan dil so'zlari yuqoridagi fikrlarimizning yana bir isboti bo'ldi. «Har kim o'zicha tasavvur qiladigan bu mo'jaz olamdagi Birinchi muallimlarimiz Aziza opa singari buyuk insonlardir. Biz ularning qarshisida boshimiz yerga tekkluncha ta'zimdamiz».

Yangi yilning boshida turibmiz. 2020-yilda ham aziz o'quvchilarimizga, zahmatkash ustozlarimizga gazetamiz orqali yangi loyihalar, yangi tanlovlar, yangidan yangi mavzularni ilinamiz. Umid qilamizki, bu yil ham ushbu jarayonlarda bizning gazetxon, bilimdon o'quvchilarimiz ustozlari boshchiligida faol ishtirok etishadi.

XOSIYATLI USTOZIM

Bejizga maqolamning sarlavhasini shunday nomlamadim.

Kattalarning ismi-jismiga monand, degan iborasi aynan ona tili va adabiyot fani o'qituvchimiz Xosiyat opa Matyoqubovaga qarata aytilgandek, go'yo. Ustozimning bizga berayotgan saboqlari tufayli men bilimli va namunali o'quvchi bo'lib, bir qancha yutuqlarga erishib kelmoqdaman.



Fan olimpiadasining turli bosqichlarida faxrli o'rinlarni egallamoqdaman. Turli tanlovlarda qatnashar ekanman, ustozimning menga vaqt ajratib, tinimsiz mehnat qilganlarini oqlagim keladi. Ustozim bilan qilgan har bir ishimiz, tayyorgarliklarimizning natijasi xayrli bo'ladi. Ularga bo'lgan mehrim, havasim tufayli men o'qituvchilik kasbini tanlashga ahd qildim. Ustozim bizni doimo mutolaaga chorlaydilar, sinfimizda mo'jazzgina kutubxona ham tashkil etganlar. Undagi kitoblarni har yili yangilashga, biri-biridan qiziqarlilariga almashtirishga harakat qilamiz. Qarabsizki, yangi asarlarni mutolaa qilganimiz sari, yildan yilga o'qigan kitobarimizning sanog'i oshaveradi. Fursatdan foydalanib, aziz ustozimga minnatdorlik bildiram, ularga munosib o'quvchi bo'lishga va'da beraman.

Asila ARALOVA,

Toshkent shahar, Yakkasaroy tumanidagi 48-umumta'lim maktabining 7-«B» sinf o'quvchisi

MAHALLA MENING TAQDIRIMDA!

Yaqinda «Mahalla mening taqdirimda» shiori ostida o'tkazilgan tanlovning viloyat bosqichida Toshloq tumanidagi Zarkent nomli mahallamiz 1-o'rinni egalladi.



Tanlovning 1-shartida mahallamiz yoshlari aziz go'shamiz ta'rifini keltirib o'tgan bo'lsalar, 2-shartda barcha savollarga to'liq javob berishdi. Keyingi shartlarda esa o'quvchilar yurtimiz

ravnaqiga munosib hissa qo'shayotgan vatandoshlarimiz haqida bayon etdilar.

Bellashuvda Diyora Ibrohimova, Durdon Abdullayeva, Xojimurod Homidov va Fazliddin Dehqonov bilimdonligi va zukkoligi bilan barchani qoyil qoldirishdi.

Tanlovning keyingi bosqichida ham tengdoshlarim mahallamiz sharafini munosib himoya qilib, nomini butun respublikamizga tanitishlariga umid qilaman.

Hayotxon UMARALIYEVA,

Farg'ona viloyati, Toshloq tumanidagi 12-umumta'lim maktabining 9-«V» sinf o'quvchisi

A'LOCHINING BIR KUNI

Toshkent shahridagi Prezident maktabining a'lochi o'quvchilaridan biri bo'lganimdan faxrlanam. Bunday yutuqqa erishishimda menga ta'lim va tarbiya bergan, yo'l-yo'riq ko'rsatgan birinchi ustozim – onam hamda buvimning hissalarini katta bo'lgan, deb o'ylayman.

MUVAFFAQIYAT SIRI



Bundan tashqari, mendan hamisha yordamini, bilimni, mehnatini ayamagan ustozlarim – boshlang'ich sinfdagi o'qituvchim Muxlisa opa Qahhorova, ingliz tili fani o'qituvchilarim Abdurahim aka Jalilov, Saidahr aka Raimjonov, matematikaning sir-sinoatlarini o'rgatayotgan, bu fanga qiziqishimga sababchi bo'lgan, menga motivatsiya bergan ustozlarim Durdon opa Sharipova, Rahmatilla aka Karimov, Umid aka Rahmonov va Sardor aka Bozorboyev tufayli bugungi kundagi ilmimga, salohiyatimga egaman.

aniq maqsad qo'yishi va unga erishish uchun yo'l xaritasini tuzib olishi lozim. Bunda vaqtni to'g'ri taqsimlash katta ahamiyatga ega. Olimpiadalarda ishtirok etish jarayonida shuni angladimki, inson doimo yuqori marralarni ko'zlashi, har qanday muvaffaqiyatsizlikka uchraganda ham umidsizlikka tushmasligi lozim ekan. Muvaffaqiyatga erishish sirlaridan biri kuchli intizom ekan. Inson bajarayotgan ishini hech qachon chala tashlab ketmasligi lozim, aks holda, yutuqlarga erisha olmaydi. Olimpiadalarga qatnashish, dunyoni ko'rish, dunyoqarashimni kengaytirishga olgan bilimlarim tufayli erishdim, deb o'ylayman.

A'lochi o'quvchi bo'lish bizdan ko'p narsa talab etmaydi, ustozlar bergan yo'l-yo'riqlarga amal qilishning o'zi ham yetarli. Ayrim o'quvchilar uy vazifalarini yaxshi baho olish uchungina tayyorlashadi. Olgan bilimlari sayozligi tufayli oson esdan chiqarishadi.

Bunday bo'lmisligi uchun men o'rganganlarimni eslab qolishga harakat qilaman. Tushunmasam yoki ikkilansam, doimo ustozlarimdan so'rayman. Inchunkun, Alisher Navoiy bobomiz aytganlaridek, «Bilmaganin so'rab o'rgangan olim, orlanib so'ramagan o'ziga zolim». Qanchalik ko'p o'rgansak, shunchalik kam bilishimizni, yanada ko'proq o'rganishimiz kerakligini anglaymiz.

Shuning uchun ilm o'rganishdan aslo charchamang, aziz do'stlar! Zero, Imom al-Buxoriy bobomiz shunday hadis keltirganlar: «Ilmdan o'zga najot yo'q va bo'lmagay».

Muhammadrizo MAJIDOV,
Toshkent shahridagi Prezident maktabining 9-sinf o'quvchisi

Hozirgi

kunga qadar bir necha fan olimpiadalarida va festivallarda qatnashib, g'olib bo'lganman, Jumladan, 2015-yil Italiyaning Milan shahrida bo'lib o'tgan «Fiestalonia International» musiqa (pianino solo) festival-tanlovida 1-o'rin sohibi, 2015-yil Rossiyaning Sochi shahrida bo'lib o'tgan «Chernomorskiy Olimp» musiqa (pianino solo) festivalida 2-o'rin, 2015-yil Italiyaning Rim shahrida bo'lib o'tgan «Rome International Music Competition» festivalida 3-o'rin, 2018-yil Bolgariyaning Burgas shahrida bo'lib o'tgan «BIMC (Bulgaria International Mathematics Competition)» tanlovida 3-o'rin (bronza medali), 2019-yil SEAMO (South Eastern Asian Mathematical Olympiad) olimpiadasida 1-o'rin (oltin medal), Qatarning Doha shahrida bo'lib o'tgan «IJSO (International Junior Science Olympiad)» tanlovida 3-o'rin (bronza medali) sohibi bo'ldim.

Tengdoshlarimga shuni aytishim mumkinki, a'lochi o'quvchi bo'lish uchun tinimsiz mehnat qilish, o'z ustida ishlash va fursatdan unumli foydalanish zarur. A'lochi o'quvchi o'z oldiga

TENGDOSH MASLAHATI

Qo'limizga ilk bor qalam tutqazgan, harf tanitgan birinchi ustozimiz barchamizga qadrlil ekanligi, shubhasiz. Men ham birinchi muallimam Gulnora opa Bobojonovaga, hozirda menga beminnat bilim berayotgan o'qituvchilarimga cheksiz minnatdorlik bildirmoqchiman.

KITOB O'QING, DO'STLARIM!

Sababi, agar u insonlar menga harf o'rgatishmaganida, men bugun bir-biridan qiziqarli kitoblarni miriqib o'qiy olmagan bo'lar edim. Inson badiiy adabiyotlarni o'qigani sari dunyoqarashi kengayar, o'z fikrini har joyda ravon va chiroyli bayon eta olar ekan. Shu sabab, men bo'sh vaqtlarimda mutolaa bilan band bo'laman. O'qigan asarlarimdagi qahramonlarining hayoti, sarguzashtlaridan ta'sirlanaman va o'zim ham qog'oz qoralay boshlayman. Yozgan kichik hikoya va maqolalarim orqali tengdoshlarimga aytmog'chi bo'lgan dil so'zlarimni bayon qilaman. Ba'zan ayrim tengdoshlarimning bir mavzu yuzasidan jo'yali fikr bildira olmasliklariga achinaman. Ularga kitob o'qing, do'stim, degim keladi.

Zafarbek RUSTAMOV,
Xorazm viloyati, Urganch shahridagi 15-umumta'lim maktabining 11-«A» sinf o'quvchisi

BOLALAR TARBIYACHISI

Inson suvrati vaqt o'tishi bilan o'zgarib boradi. Yoshlik ko'rkini saqlab qolish kishining qo'lida emas. Ammo ruhiyat va ko'ngil navqironligini saqlab qolish, u bilan hamohang yashash bolalik xotivalari, orzulari og'ushida sarmast hayot kechirish har birimizning qo'limizdadir.

Tabarruk 87 yoshini qarshi olgan ijodining aksariyat qismini bolalar adabiyotiga bag'ishlagan yozuvchi Xudoyberdi To'xtaboyev ko'ngil navqironligi bilan hayot kechirayotgan adibdir.

Darhaqiqat, Xudoyberdi To'xtaboyevning asarlarini o'qir ekanmiz, ularning barchasida yoshlar tarbiyasiga juda katta urg'u berilgan. «Gar hayotdan olmasa ta'lim, o'rgatolmas hech bir muallim», degan hikmatni Xudoyberdi To'xtaboyev o'z ijodida shiorga aylantirib oldi, desak, xato qilmaymiz. Chunki yozuvchining qay bir asarini qo'lga olmaylik, uning bosh qahramonlari yalqov, ilm dunyosidan ancha yiroq, hayotga yengil ko'z bilan qaraydigan, asosiysi, tarbiyaga muhtoj yoshlardir. Ijodkor bu qahramonlarini pand-u nasihatli so'zlar bilan tarbiyalamaydi, chunki ularga bunaqangi o'g'itlar umuman kor qilmasligini tushunadi va bu illatlarni bartaraf etish chorasini, albatta, ularning o'zidan

ijodkor juda yaxshi biladi, chunki u o'smir bo'lib, o'spirin bo'lib, qahramonlarining ruhiyatiga kirib boradi. Ularni hayotdan ta'lim olishga undaydi va asar so'ngida o'z maqsadiga erishadi.

Yozuvchi asarlarining o'qishli chiqishida uning zamon bilan hamnafas yashashi ham katta ahamiyat kasb etadi. «Qiz talashgan o'smirlar» asarini oladigan bo'lsak, asar qahramonlarining barchasi



Adib asarlarining barcha birdek sevimli bo'lib qolishi, o'qimishliligi sababi yuqorida aytganimizdek, unda oshkora pand-nasihatning yo'qligidadir.

tadbirkor yoshlardir. Bu asarni o'qigan har bir kitobxon ko'nglida o'zi yashayotgan mahallasi ravnaqi, obodonligi uchun nimadir qilish ishtiyoqi paydo bo'ladi. Bundan tashqari,

o'z oldiga qo'ygan maqsadini amalga oshirishi uchun, albatta, biror kasb egasi bo'lishi kerakligini tushunib yetadi. Demak, yozuvchi tom ma'noda o'smirlarni tarbiyalovchi, ularni to'g'ri yo'lga soluvchi, hayotda o'z o'rnlarini topishlarida hamroh va kasb tanlashlarida maslahatgo'yi, bir so'z bilan aytganda, yo'lboshchi, desak adashmaymiz. Shuning uchun ham farzandlarimizning kitobsevar bo'lishida Xudoyberdi To'xtaboyevning rang-rang sarguzashtlarga boy kitoblari katta ahamiyat kasb etadi. Har bir o'zbek xonadoni kitob javonlarida yozuvchining ko'plab kitoblari saf tortib turishining boisi ham shunda.

Sarvara ESHONXONOVA, Hilola PANJIYEVA,
Qashqadaryo viloyati, Kasbi tumanidagi 9-umumta'lim maktabining ona tili va adabiyot fani o'qituvchilari



izlaydi. Buning uchun dangasa, takabbur qahramonlarni o'zlari tanlagan yo'ldan borishiga yordam beradi. Albatta, ular qisqa fursat ichida boshi berk ko'chaga kirib qoladi. Ana shunday adib sarosimaga tushgan qahramoniga darhol yordamga yetib keladi.

Buning dalili sifatida barchamizga sevimli bo'lgan «Sariq devni minib», «Qiz talashgan o'smirlar», «Shirin qovunlar mamlakatida», «Omonboy va Davronboy» asarlari qahramonlarini keltirishimiz mumkin. Yozuvchi qahramonlarining barchasi o'spirinlardir. Sababi, hech bir o'smirlarga nasihatimiz so'zlar yoqmasligi aniq. Buni

TUGANMAS XAZINA

«Tong yulduzi» gazetasining 2019-yildagi sahifalarini mutolaa qilar ekanman, «Kitob eng buyuk mo'zija», «O'quvchilarga maktub» sarlavhasi ostidagi maqolalar diqqatimni tortdi.



Darhaqiqat, kitob insonni ulug'laydi, o'zligini anglatadi. Eng muhimi, u tuganmas xazina. Bizning hayot yo'llarimizni nurafshon qiladi.

Kitob bebaho boylik,
U tuganmas xazina.
Unga oshno bo'laylik,
Olaylik biz tarbiya.

Kitob do'stidir beminnat,
Sirdosh, hamdard, hamfikir.
Chin yurakdan deng: «Rahmat!»
Kashf etar zo'r tafakkur.

Nilufar ABDUSATTOROVA,
Andijon viloyati, Buloqboshi tumanidagi 20-umumta'lim maktabining 8-«D» sinf o'quvchisi



AKAMGA HAVAS QILIB...

4-sinfda o'qiydigan Shahriyor akam «Tong yulduzi» gazetasini o'qiganlarida, ularga juda havasim kelardi.

Bu yil ustozimiz Aziza opa Jamolova biz ham aynan bu gazetaga obuna bo'lishimiz mumkinligini aytganlarida, quvonib ketdim. Endi mening ham o'z gazetam bo'ladi, istaganimda o'qiyman. Shuningdek, sinfdoshlarim Sarvar, Burxonxo'ja, Mustafo, Ilhom, Dilnura, Abdulfayoz, E'zoza, Fazliddin va boshqalar ham sevimli nashrimizga 2020-yil uchun yillik obuna bo'lishdi. Yaqinda maktabimizda o'tkazilgan tadbirda yodlagan she'rlarim ham shu gazetadan olingan edi. Ustozimiz, sizlar ham she'riy mashqlaringiz yoki chizgan rasmlaringizni tahririyatga yuborishingiz mumkin, deganlarida esa yanada quvonib ketdim.

Farzonabonu BAHODIROVA,
Toshkent shahar, Yunusobod tumanidagi 274-umumta'lim maktabining 2-«E» sinf o'quvchisi

ASADBEK MALAYZIYAGA BORADI

2019-2020-o'quv yilida Xalq ta'limi vazirligi hamda «English Language Proficiency Competition» MCHJ hamkorligida maktab yoshidagi o'quvchilar o'rtasida ingliz tili fanidan «Spelling Bee-2019» Milliy Olimpiadasi o'tkazildi.

«Spelling Bee» til olimpiadasi ilk bora 1925-yilda Amerika qo'shma shtatlarida tashkillashtirilgan bo'lib, hozirga kelib dunyoning qator davlatlarida Milliy Olimpiada sifatida o'tkazib kelinmoqda. Amerikaning «Scripps National Spelling Bee» tashkiloti ko'magida O'zbekistonda ham ushbu Olimpiada 2018-yildan boshlab tashkil qilindi. Olimpiada 3 bosqichdan iborat bo'lib, ishtirokchilar so'z boyligi, so'zlarni to'g'ri talaffuz qilish, imloviy xatoga yo'l qo'ymaslik yuzasidan og'zaki va yozma ravishda bellashadi. 2019-yil 21-dekabr kuni Toshkent shahridagi «Wise school» xususiy maktab binosida «Spelling Bee-2019» ingliz tili fani olimpiadasining, ya'ni yakuniy final bosqichi 2-sinfdan 11-sinfgacha bo'lgan o'quvchilar o'rtasida bo'lib o'tdi. Olimpiadada ishtirok etgan Qoraqalpog'iston Respublikasi va 12 ta viloyat bo'yicha 1266 ta o'quvchi orasidan 6-sinfda tahsil olayotgan o'quvchi Asadbek Islomov 1-o'rinni egallab, O'zbekiston chempioni bo'ldi va Malayziya davlatiga 1 haftalik bepul sayohat, sertifikat va medal bilan taqdirlandi.



Gulmira TASHEVA,

Buxoro tumanidagi 3-umumta'lim maktabi ingliz tili fani o'qituvchi

Yangi O'zbekistonimizni yuksak taraqqiyot bosqichiga ko'tarishdek ezgu niyatimizga yangicha va mustaqil fikrlaydigan... fidoyi yoshlarni tarbiyalash orqali erishamiz.
Shavkat MIRZIYOYEV

Tahririyatimizga ko'plab ijodkorlar, ustozlar, o'quvchilar mehmon bo'lib kelishadi. Bu safargi mehmonimiz Ilhom Norov Qashqadaryo viloyatining Shahrisabz tumanidagi 53-umumta'lim maktabida fransuz tilidan saboq beradi. Maktabning eng faol va iqtidorli o'quvchisi Sevinch Mo'minovaning ijod namunalari ataylab tahririyatimizga olib kelgan jonkuyar ustozni suhbatga chorladik.

SHAHRISABZDAN MEHMON KELDI

– 32 yildan buyon ushbu fandan dars berib kelaman, – deya so'z boshladi ustoz. – Maktabimiz garchi kichik, o'quvchilar soni kam bo'lsa-da, izlanuvchan, tishshoq o'quvchilarimizning yutuqlari katta. Masalan, o'zim saboq beradigan fransuz tili fanini



olaylik: bu tilni o'rganishga ishtiyoqmand o'quvchilarimdan Sevinch Mo'minova, Hilola Xonnazarova, Bahora Shamsiddinova, Asilbek Hamroyev va Iroda Nafasovadan umidim katta. Ular nafaqat darslarimda, balki to'garak mashg'ulotlarimda ham faoldirlar. Mashg'ulotlarim juda qiziqarli o'tadi. O'quvchilar bilan fransuz tilidan maqollar, topishmoqlar aytamiz, avval rus, so'ngra o'zbek tillariga tarjima qilamiz. Bu o'quvchilarga uchta tilni o'rganish imkoniyatini beradi. Yana ularning bilimlarini sinash maqsadida rebuslar, so'z o'yinlari ham tashkil etaman. Bu o'quvchilarning birinchidan topqirligini, ikkinchidan so'z boyligini oshiradi. Zukko, bilimdon o'quvchilarimdan Hilola Xonnazarova, Og'abek Shodiyev fan olimpiadaning maktab bosqichida qatnashib, ayni damda tuman bosqichida ishtirok etish uchun saralash bosqichidalar. Shuni mamnuniyat bilan aytishim mumkin, bu o'quvchilarimizning barchasi «Tong yulduzi»ning muxlislari. Bu yil ushbu gazetaga obunachilarimiz sonini ko'paytiramiz, – deya va'da berdilar ustoz.

Suhbatimiz yakunida jonkuyar ustozdan gazetamiz muxlislariga tilaklarini so'radik:

– Bugungi o'quvchilarimizning puxta bilim olishlari, til o'rganishlari, sport bilan shug'ullanishlari uchun barcha sharoitlar yaratilgan. Ayniqsa, kapital ta'mirdan chiqqan maktablar kishi ko'zini quvontiradi. Bolalarga dunyo tillarini mukammal o'rganishlari, jahon arenalariga chiqib, O'zbekiston bayrog'ini baland hilpiratishlarida omad tilayman.

TAHRIRIYATDAN:

Suhbat davomida Ilhom aka bizga maktab binosining ancha eskirib qolganini, maktab uchun ajratilgan kollej binosi esa qishloqdan oqib o'tadigan soyning narigi tarafida joylashganini aytib, u yerda yog'ingarchilik mavsumida sel kelish xavfi borligidan xavotirga tushayotgan ota-onalar maktabni kollej binosiga ko'chishini istashmayotganini ma'lum qildilar. Shuningdek, maktabda stadion yo'qligi sababli, qishning qirovli kunlarida o'quvchilar yo sinfxonada yoxud maktabning loy bosgan tomoqasida eski to'p bilan futbol o'yinlarini, sport anjomlari ham yetishmasligini aytdilar.

Bu maktab o'quvchilar orasidan kelgusida jamiyatimizga kerakli insonlar yetishib chiqishini astoydil istayotgan ustozlarning nomidan Xalq ta'limi vazirligidan yuqoridagi muammolarning hal etilishida amaliy yordam ko'rsatishlarini so'raymiz.

Ozoda TURSUNBOYEVA

Ingliz tilini o'rganamiz! Let's learn English!

Lesson 1

NEW YEAR

New Year's day is fun holiday. New Year's day is celebrated in winter. All children love this holiday and enjoy in this season.

In winter we can play snowballs, play hockey, skate, ski. There is a lot of snow and we can make a snowman. Pupils have winter holidays and they don't go to school.

We celebrate New Year's day at home. We sing songs and dance. We decorate the fir tree. We get and give presents. In New Year we watch fireworks. We cook special food. We have a meal with our family. It is really wonderful and enjoyable.



And we say happy New Year.

Abdulaziz HUSANOV,

The pupil of school № 274, Yunusabad district, Tashkent region

Choose appropriate words and complete the sentences

Highland, motherland, wonderland, Disneyland, Scotland

1. My _____ is Uzbekistan.
2. On map _____ is usually coloured brown and lowland.
3. Explore _____ Park, where fantastical dreams come true.
4. _____ is a beautiful country in the north of Great Britain.
5. «Alice in _____» is a famous book by Lewis Carroll.

Ruxsora OMONOVA,

The pupil of school № 1, in Kushkupir district, Khorezm region



Qiziq, eshikdan xushkayfiyatda kirib kelgandi. Ochiq chehra, muloyim tovushda salomlashdi ham. Uyga berilgan vazifani tekshirayotib, o'zgardiqoldi...


Boshqa murabbiylarni ham hurmat qilardig-u, lekin matematika o'qituvchimiz Ahadjon Qayumovga hurmatimiz o'zgacha edi. Shod bo'lsalar, quvonardik. Xafa ko'rinsalar, butun sinf suv quyganday jimib qolardi. Birortamizni urib-so'kma-gan bo'salar-da, hozir o'nilaridan turib, hammamizni savalay ketadiganday, u kishidan hayiqardik.

ma'qullangan javobi ko'p bolalami xijolatdan qutqardi. Endi boshqalar ham javob berish uchun qo'l ko'tara boshlashdi:

– Bo'ning rangi qizil...
– Iye, ko'rmayapsanmi? Bo'ning rangi yashil-ku!
– Malu-um, men aytay! Bo'r naparmon rangda!..

Ahad ustozning darsida hech qachon kuzatilmagan shovqin ko'tarildi. O'rtoqlarimning noto'g'ri aytayotganlarini bilib turibman-u, muallimning bu javoblardan ko'ngli ko'tarilayotganidan

Ilhom AHROR



SIRLI BO'R

(Hikoya)

Bugun ham shunday bo'ldi. Muallim Rasul bilan Hamroning uy ishlarini tekshirdi. So'ng, Hamroning daftarini qo'lga olib, undan: «O'zing bafardingmi?» deb so'radi. Hamro hayajonlangan «Ha-ha, o'zim» degandi, muallim ohista boshini ko'tarib, og'ir «uf» tordidi. So'ng, butun sinfga ko'z yugurtirib chiqdi. Hamma, go'yo o'z daftaridan, sinfdan qochib ketish uchun yashirin yo'l izlayotganday boshini egib olgan. Muallim hech kimning nigohidan o'zi kutgan ma'noni topolmadi chog'i, og'ir xo'rsinib, doska tomon yurdi. Navbatchi yarqiraytib artib qo'ygan yozuv taxtasi rafidagi bo'rni olib bizga yuzlandi:

– Bu bo'ning rangi qanaqa? – so'radi u.
– Oq, – dedik baralla. – Oq rangda!
Ahad domlani qo'zlarida norozilik uchqunlari aks etdi:

– Oq emas! Senlarda did degan narsaning o'zi yo'q ekan. Bu bo'ning rangi oq emas-ku, baraka topkurlar!

Hamma jimib qoldi. Muallim yana savolini takrorladi:

– Bo'ning rangi qanaqa?
Hech kimdan javob bo'lmagach, muloyim muomalaga o'tdi:

– Qani, Mohira o'zing tur-chi, qizim. Sen mening darsimni juda yaxshi ko'rsan, shu bo'ning qanaqa rangda ekanligini aytib bergin.

Mohiraga bolalar turlicha laqablar qo'yishgan: «Chaqimchi», «Lofchi»... Haqiqatan, u oramizda bo'lgan hamma gaplarni sinf rahbarimizga yetkazib turardi. Matematika darsida ham og'zaki misol-masala yechishda duch kelgan sonni o'yilmasdan aytar, Ahad domla bu odati uchun ko'p bor tanbeh bergandi. Ajab, endi esa unga ishonch bildirayapti. U maqtovlardan iyib ketdimi, odatdagiday xayoliga kelganini aytdi:

– Bo'ning rangi ko'k!
– Rahmat qizim, xayriyat, sen bor ekansan, – unga rag'batli nigoh tashlab jilmaydi ustoz.

Mohiraning o'qituvchimiz tomonidan

ajablanardim... «Balki, bo'ning o'z-gacha sehri bo'lib, har ko'z uchun turlicha tuslanayotgandir?! – o'ylayman ichimda. Men esa faqat oq bo'rni ko'rib turibman. O'nimdan turib, oq desammikan? Yo'q, ustoz gazablanib ketadilar. Qo'y, indamay turganim ma'qul. Faqat... so'rab qolsalar nima deb javob beraman-a?»

Nogahon Rasul o'rnidan turdi. Keyin bilsam, u barchamizni qutqargan ekan. Ahad muallim uning qanday javob berishiga azbaroyi qiziqqanidan katta qadamlar bilan unga yaqinlashdi:

– Xo'sh, bo'r qanday rangda? – so'radi biroz jiddiy tortib.

– Oq, – dedi Rasul sekingina va muallimning norozilik bilan bosh chayqayotganini ko'rib, ovozini yanada balandlatdi:

– Bu bo'ning rangi oq, oq, oq!
– Hoy bola, ko'zingni kattaroq ochib qara! Nahotki, shu sabab oq rangda bo'lsa?!

Ahad muallim Rasul yana shu so'zni takrorlaydigan bo'lsa, bo'g'ib olgudek vajohatda savolini qaytardi:

– Bo'r qanaqa rangda, deypaman?!
– Oq, – Rasulning tovushi titradi.
– Oq deypaman-ku, ustoz, oq ...

Ahadjon Qayumov kutilmaganda uni qo'ltiqlab oldi. Doska oldiga olib chiqdi:

– Orangizda bittagina qat'iyatli bola bor ekan, – dedi uning yelkasidan quchgan-cha. – Rasul matematikani o'zlashtirishda butun maktab o'quvchilari ichida birinchi o'rinda turadi. Bugun to'g'riso'zlikda ham barchaga namuna ekanligini namoyon etdi. Kechagi uy vazifasini ham ham-mangiz undan ko'chirib olsangiz. Hozir daftarlaringga qarab kimlar Rasuldan ko'chirganini aytib berishim mumkin.

U Rasulga o'tirish uchun ruxsat berarkan, bizga nisbatan qandaydir pisanda bilan o'rni-ga o'tirdi. Jurnalni olib nimalardir yozdi va turib ginali ohangda dedi:

– Qachongacha o'zingizni aldaysiz? So'ng, navbatdagi darsni boshladi... O'sha kun dars juda ham cho'zilib ketgandek bo'ldi, go'yo...

SAHIFAMIZDA: SIRDARYO VILOYATI, GULISTON SHAHRIDAGI HALIMA XUDOYBERDIYEVA NOMIDAGI IJOD MAKTABI O'QUVCHILARI

Ushbu ijod maktabida «Yosh qalamkash va jurnalistika» o'quv to'garagi faoliyati yo'lga qo'yilgan. Mashg'ulotlar davomida so'z bilan ishlash sirlarini o'rganayotgan ijodkor o'quvchilar she'riy mashqlar qilayotganligi quvonarli.

O'quv mashg'ulotlarni ijod maktabining ona tili va adabiyot fanlari o'qituvchisi Husniddin Hayitov tashkil etib kelmoqda. Bu galgi sahifamizda o'quvchilarning ijodiy mashqlaridan namunalar havola etamiz.



OLQISH

To'kilgandir, hur makon,
Tupro'gingga kindik qon,
Bag'ringda yayraydi jon,
Senga aytib olqishlar,
Madhing kuylar oqqushlar.

Dil oshno diydoringga,
Shukur deyman boringga.
Men ham yaray koringga,
Senga aytib olqishlar,
Madhing kuylar oqqushlar.

Zamira SHERMATOVA,
7-sinf o'quvchisi

TABIATNING TUHFASI

Mayin shamol yuzimni silab,
Behalovat men o'tirgan joy.
Quyosh misol nurlarin elab,
Termulardi menga ko'kda Oy.

Taratardi xushbo'y iforin,
Oh, naqadar go'zal bu oqshom.
Ko'z-ko'z qilar gullar ham borin,
Tusha boshlar kechga yaqin shom.

Tabiatning tuhfasi ajab,
Yoshlantirar ko'zimni bu on.
Shodlanaman atrofga qarab,
Va qalbimni bosar hayajon.

Sitora NAIMJONOVA,
8-sinf o'quvchisi



NADIR ILHOM?

Nadir aslida ilhom,
G'am-g'ussa yoxud tuyg'u?
Yurakka bermay orom,
Naqshin chizib yashar u.

She'rlarda ko'rsatib bo'y,
Go'zallik baxsh etadi.
Shoirlar surganda o'y,
Darhol kelib-ketadi.

Shundan axir har onda,
Qalbdan tinmaydi ijod.
Va she'riyat jahonda,
Abadiy bo'lar hayot.

Javohir KELDIYOROV,
7-sinf o'quvchisi

Qadim zamonlarda emas, shu o'zimizning zamonda bir oila bor ekan. U oilada Shokir ismli bola yashardi. U gapga kirmas – quloqsiz bola ekan. Shokir ko'cha changitib

Shokir sho'rvani nonsiz ichibdi. Har kuni shunday, ya'ni nonsiz o'tibdi.

Bir kuni ertalab u bir o'rtog'inikiga borsa, o'rtog'ining onasi issiq non yopibdi. Uning ham issiq non yegisi

NONSIZ BIR KUN

yurar, hammaning tinchini buzard edi. Bir kuni uning qorni ochibdi. Uyiga yugurib kelsa, oyisining boshi og'riyotganligi uchun ovqat qila olmagan ekan. Shunda Shokir oyisiga:

– Meni ovqat yegim kelyapti. Ovqat qiling, – debdi.

– O'g'lim, non yeb tura qol, – debdi ona bazo'r.

– Yo'q, non yemayman, nonni yomon ko'raman, – deb baqiribdi u.

Kechqurun kelsa, onasi sho'rva tayyorlagan ekan.

kelibdi va uyiga chopibdi. Uyiga kelsa, oyisi ovqat qilayotgan ekan. U oyisidan kechirim so'rabdi.

– Oyijon, jon oyijon, meni kechiring. Iltimos, menga non bering, endi nonni e'zozlayman, – deya so'z beribdi u...

Shunda onasi unga non beribdi. Bola nonni mazza qilib yebdi.

Shokir katta xato qilganini tushunibdi. Nonsiz bir kuni ham yaxshi o'tmasligini bilibdi va onasining ham qadriga yetishga o'rganibdi.

Marjona ABDUMALIKOVA,
8-sinf o'quvchisi

O'quvchiligimda bo'sh vaqtim bo'ldimi, o'zimcha maqola, she'r yoki topishmoq yozardim. Ammo mashqlarimdan ko'nglim to'lmasdi. Muallimga, oila a'zolarimga, hatto yaqin do'stingma ham ko'rsatishga uyalardim. Mukammal yozishim uchun ko'p o'qib, ko'p mashq qilishim lozimligini dadam takror-takror aytardi. «Gazetaga chiqish osonmas, bolam. Buning uchun ijod namunang puxta bo'lishi, uni bexato, husnixatda aniq va ravon yozishing zarur, derdi.

Adabiyot to'garagi rahbari shoirtabiat muallim Jabborali Jo'raboyev markaziy gazeta-jurnallardan yangiliklar, she'rlar o'qib berardi.

Adabiyot fani muallimlari Mahkam Masaliyev, Ergash Karimov kitobxonlik adabiy kechalari uyushtirdi. Zafar Diyorning «Uch og'ayni», «Omonat» pyesalarining sahnadagi talqini hamon yodimda.

BOLALIK SABOG'I

Shunday adabiy muhit sabab bizda adabiyotga qiziqish tobora ortib borardi. «Lenin uchquni» – hozirgi «Tong yulduzi» gazetasi bir millionga yaqin nusxada nashr etilardi. Bu – rekord natija bo'lgan. Biz ham butun sinfimiz bilan obuna bo'lganmiz.

«Maktablardan xabarlar», «Bizga yozadilar», «Bizning pochta» sahifasi gazetaxonlarni xushnud etardi. Qaysi bir sonida «Baxt nima?» mavzusida so'rovnoma e'lon qilingan. Respublika bo'yicha o'quvchilarning javoblari,

fikr-mulohazalari yil davomida berib borilgan.

Men ham tavakkal «Do'sting qancha ko'p bo'lsa, bu ham baxtdir», degan fikrimni maktub orqali tahririyatga jo'natdim. Maqola gazeta yuzini ko'rgach, barcha maktabdoshlarim meni tabriklashdi. Shunday qilib, yosh muxbirga aylanib qoldim, har yoqdan do'stlik maktublari yog'ila boshladi. Xat orqali tanishib, do'stlar orttirdim.

Qoraqalpog'istonlik Qo'ng'irot-boy rassom, Jabbor ismli muallim-shoir, Xorazmdan Otanazar jurnalist, Surxondan Abduljalil oshpaz kabi do'stlarim bilan hamon diydorlashib turamiz.

Shu tariqa «Tong yulduzi» bolalikdagi eng yaqin do'stlarimdan biri bo'lib qoldi. Yozganlarim bolalik xotiralarimdan bir lavha, xolos.

Anvar MIRZAYEV,
Farg'ona viloyati,
Beshariq tumani

Erta bilan uyg'onib qarasam, yomg'ir yog'ayotgan ekan. Havo butuliti bo'lgani uchun tong otgani ham bilinmasdi. Nonushta qilib bo'ldik hamki, yomg'ir tinay demasdi. Shuning uchun dam olish kunini xonamda dars tayyorlash bilan o'tkazishga majbur bo'ldim. Birozdan so'ng onam xonamga kirib:

– Bugun kun sovib ketdi. Bobongnikiga ham bora olmaydigan bo'ldik, – dedilar.

– Kun bo'yi uydan chiqmay, rosa zerikar ekanman-da, – dedim afsuslanib.

– Nega endi, ko'chaga chiq, sayr qilib kel, – dedilar oyim jiddiy ohangda.

– Yo'g'-e, ust-boshim ho'l bo'ladi. Men bunday ob-havoni yoqtirmayman, – dedim-u, ammo zerikkanimdan hovliga chiqishdan o'zga chora topolmadim.

Hovliga chiqib panaroq joy qidirdim. O'choqboshiga borib o'tirdim. Ko'zim gugurtga tushdi. O'zimcha o'tin yoqib, olovning yonishini kuzatmoqchi

YOMG'IRDAN SO'NG...



bo'ldim. Ammo oradan hech fursat o'tmay, olov kuchayib ketdi. Men qo'rqib ketdim. Shunda quruq o'tin bilan gulxanni tashqariga surib tashladim. Sharros yog'ayotgan yomg'ir esa bir zumda o'tni o'chirdi. Agar yomg'ir bo'lmaganida, olov hashaklarga

o'tib ketar edi. Shunda boya onamga aytgan gapim yodimga tushdi. Yomg'irni yoqtirmayman, deganimdan afsuslandim. Tabiatda har bir ne'matning o'z o'rnini borligi rost ekan. Shu lahzada men ona tabiatimizning – barcha unsurlarini sevib, qadrlagim keldi. Uyga kirib, onamga:

– O'yijon, bizga quyosh kabi yomg'ir-u qor ham kerak ekan, – dedim-da, xonam tomon burildim.

Onam esa ortimdan hayron bo'lgancha qarab qoldilar. Yog'ayotgan yomg'ir menga hayotda har bir narsaning o'z o'rnini, qadr-qimmatini borligini anglatdi.

Nozima RUSTAMOVA,
Toshkent viloyati, Yangiyo'l tumanidagi 42-umumta'lim maktabining 5-«B» sinf o'quvchisi

TOPISHMOQLAR

Ular yashar beshtacha, Sanar yana beshgacha. Qishda bo'ldi boshgacha, Libos kiydi boshgacha.

Qorboboning to'rt qizi bor, Xizmatida tayyor, dastyor. Biri – Kumush, Biri – Zumrad, Biri – Go'zal, Biri – Oltin. Qaysi biri kelar oldin, Kutib olar, toping otin?



TEZ AYTISHLAR

Qishda ko'p qushlar, Qishloqda qishlar, Qishni olqishlar.

Qishning kuni, qirq turli, Qirqovi ham qiliqli.

Bo'ri mo'ridan mo'ralar, Bo'ron bo'ridek buralar.

TA'TILDA BIRGA YASAYMIZ

«QUVNOQ SICHQONCHA» APPLIKATSIYASI

Assalomu alaykum, «Tong yulduzi» gazetasining jonkuyar ijodkorlari! Sevinli gazetamning ijodiy jamoasini kirib kelgan 2020-yil bilan chin qalbidan tabriklayman.


Men maktabda barcha fanlardan a'lo baholariga o'qiyman. Ayniqsa, matematika, ona tili, rus va ingliz tili fanlarini juda yaxshi ko'raman. Darsdan bo'sh vaqtlarimda badiiy kitoblarni o'qiyman. Shuningdek, yumshoq o'yinchoqlar yasash, turli shakldagi applikatsiyalar tayyorlash ham sevimli mashg'ulotlarimdan biri. Bundan tashqari, «Kompyuter savodxonligi» to'garagi a'zosiman. Kelgusida ingliz tilini mukammal o'rganib, tarjimon-yo'lboshchi (gid) bo'lmoqchiman.



Qadimiy Xiva shahriga yaqin joylashgan tumanda yashaganim bois bu ko'hna va hamisha navqiron shaharning tarixi, madaniyatini butun dunyoga tanitmoqchiman.

Bu yil muchal hisobi bo'yicha sichqon yilini qarshi oldik. Shu sababli, sizlarga «Quvnoq sichqoncha» nomli applikatsiya tayyorlashini o'rgatmoqchiman. Bu juda oson va zavqli jarayon. Buning uchun bizga kulrang, pushti yoki havo rang, qizil rangdagi qog'ozlar, qaychi, yelim, rangli qalam kerak

bo'ladi. Eng avvalo, kulrang qog'ozdan 1 ta katta tomchicha shaklini qirgib olamiz. So'ngra, boshi uchun birinchi tomchidan kichikroq yana bir tomchi shaklini qirg'amiz. Eng oxirida esa quloqlari uchun ikki tomchi shaklini ham kichikroq shaklda qirgib olamiz. Demak, hammasi bo'lib turli o'lchamdagi to'rtta tomchi shakli hosil bo'ladi.



Endi ularni bir-biriga yelimplab chiqamiz. Keyin qora rangli qalam bilan dumini, ko'zini, mo'ylovini, oyoqchalarini chizib, ularni ham qirgib olamiz va yelimplaymiz. Bu quvnoq sichqoncha barchaga quvonch, yaxshi kayfiyat bag'ishlashiga ishonaman.

Kumushoy RAHIMBERGANOVA,
Xorazm viloyati,
Qo'shko'pir tumanidagi 8-umumta'lim maktabining 4-sinf o'quvchisi

KOMIKS

MUHIIM JO'NATMA

TASHOARIDA BO'RALAB QOR YOG'ARDI. BIZNING QAHRAMONLARIMIZ ESA...



— Men yana g'o-libman!

— Bu o'yinda senga hech kim bas kelolmaydi, Anna.

— Ha, bugun omading keldi!



TUK TUK

— Kiring.



— Qirolicha Elza, qishloq novvoyi-ning sizda muhim gapi bor ekan.

— Bezovta qilganimdan afsusdaman. Biroq chindan ham yordamingizga muhtojman.

— Men tog'da yashaydigan jivanlarim uchun non olib bormoqchi edim.



— Biroq tog' yo'lini qor ko'chkisi to'sib qo'ydi. Endi ularning uyiga bora olmayman.

— Ular juda ham o'lisda yashashadi. Hademay oziq-ovqatlarini ham tugab qoladi.

— Agar ularga yordam bermasak, och qolishlari mumkin!



— Ularning kichkina bolalari ham bor!

— Tashvishlanmang. Biz o'sha uyga yetib borish uchun qo'limizdan kelgan barcha ishni qilamiz.

— Minnatdorman, qirolicham! Borib jivanlarim uchun yegulik hozirlayman.

— Men ham yordam beraman.



— Do'stlar, iloji boricha tezroq yerga yetib borishimiz kerak!

— Balki chanani ishga solarmiz!

QAHRAMONLARIMIZ YO'LGA CHIQDILAR...



— Rahmat sizlarga! Ehtiyot bo'linglar!

— Albatta!

— Ko'rish-guncha.



— Ko'rinishidan qoplar ancha og'irga o'xshaydi.

— Chindan ham shunday, Olaf.



— Qoplarda yana qadrdonimiz Sven uchun ham sabzilar bor.

— Qor bosgan yo'ldan qanday o'tishimiz haqida o'yladimmi?

— Hozircha bilmayman. Lekin, albatta, buni uddalaymiz. Axir bizni kutishyapti.

YO'LDA BORISHAR EKAN...



— Yo'ning o'rtasida yangi tog' qayerdan kelib qoldi?!

— Bu qor ko'chkisi natijasida paydo bo'lgan bo'lsa kerak.



— Kristof, sen menga ajoyib g'oya berding!

— Endi yo'l xavfsiz bo'lishi uchun biroz muzlatamiz.

— Elza, se-ning sehring juda ham qoyilmaqom.

— Endi bolalar och qoishmaydi!!!



QOSH QORAYA BOSHLAGAN DAMDA...

— Qaranglar, menimcha, biz izlagan uy mana shu.

— Biz uni topdik.

— Amakimiz sizlardan juda ham xavotir oldilar. Shuning uchun bizni yubordilar.

— Sizlardan minnatdorman. Bolalar och qoigan edilar. Biz esa nima qilishni ham bilmay turgandik.

— Ur-re-e-e!




— Bunday bo'lishini kutmagandim.

— Balki uni oshib o'tarmiz.

— Ammo shuncha yuk bilan buni uddalash imkonsiz!

— Yo'l ochishga urinib ko'raman.



SHUNDAY QILIB...

— Tez orada manzilga yetib boramiz!

— Elza, sen juda ham aqllisan.

— U har doim qiyin vaziyatlarda nima qilishni biladi.




— Yo'lda toliqqan bo'lsangiz kerak! Hademay qor yog'a boshlaydi. Bu kecha mehmonimiz bo'ling!

— Bajonudil!



LEKIN...

— Qor juda ham qattiq ekan!



VA NIHOYAT...

— Aytinch, qor bosgan yo'ldan qanday qilib o'tdingiz?

— Bu ham bizning yangi sarguzashtimiz bo'ldi.

— Ammo toki ta'tilda ekanmiz, sarguzashtlar hali davom etadi!

8

6-yanvar 2020

Rus tilidan M. FAYZULLAYEV tarjimasida

Tong yulduzi

Muassis:
O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi

Bosh muharrir
Feruza ADILOVA

Gazeta O'zbekiston Respublikasi Prezidenti administratsiyasi huzuridagi axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 0208-raqam bilan 2019-yil 10-iyunda ro'yxatdan o'tgan.

TAHRIR HAY'ATI:
Alisher SA'DULLAYEV,
Dilshod KENJAYEV,
Murtazo SULTONOV,
Feruza JALILOVA,
Ashurali JO'RAYEV
(Bosh muharrir o'rinbosari),
Feruz MATYOQUBOV
(mas'ul kotib)

Navbatchi muharrir
Sayyora QODIROVA

Rassom
Feruzbek KAMOL o'g'li

Sahifalovchi-dizayner
Shaxobiddin MAXMADIYEV

«O'zbekiston» NMIU bosmaxonasida chop etildi.

Gazetaning poligrafik jihatdan sifatlil chop etilishiga bosmaxona mas'ul.

Manzillimiz va bosmaxona manzili: Toshkent shahri, Navoiy ko'chasi, 30-uy. Indeks: 100011. Obuna indeksi: 198.

www.tongyulduzi.uz
e-mail: tongyulduzi1929@umail.uz
telegram: t.me/tongyulduz
Adadi - 6 000
Buyurtma - V-4007

Tahririyatga kelgan barcha qo'lyozmalar tahrir qilinadi, mualliflarga qaytarilmaydi.

Gazetaning yetkazib berilishi uchun ubonani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.

Shakli A-3, 2 bosma taboq.

Bahosi kelishilgan narxda.

Gazeta haftanangiz dushanba kuni chop etiladi.

Topshirish vaqti - 18:00
Topshirildi - 18:00
Tel./faks: (99871) 244-63-08